

BADIIY HIKOYALAR ASOSIDA TALABALARNING YOZISH KO'NIKMASINI BAHOLASH METODIKASI

Shukurova Farida

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy hikoyalar asosida talabalarning yozish ko'nikmasini baholash me'zonlari, yozish ko'nikmasini rivojlantirish doirasida ijodiy yozish, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** kommunikaiv kompetensiya, yozish ko'nikmasi, baholash, ijodiy yozish, baholash me'zonlari.*

KIRISH.

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini o'rganish va ular orqali muloqot qilish — zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonida muhim talablardan biriga aylangan. Ushbu kontekstda PQ-3775 (2018 yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror) ta'lim muassasalari faoliyatining sifatini oshirishga, shuningdek, talabalarning til o'rganish va kommunikatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli vazifalarni belgilagan. Shu sababli, talabalarning **kommunikativ kompetensiyasini** oshirish — xususan, yozma muloqot (writing) ko'nikmasini shakllantirish borasida darsliklar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi va tadbir qilinishi dolzarbdir.

Shu bilan birga, yozish ko'nikmasini nafaqat oshirish, balki uni **to'g'ri baholash** ham ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yozma matnlar baholanishi jarayonida aniqlik, adolat va formatlar mavjud bo'lishi talab etiladi. Masalan, ijodiy matnlarni baholash metodologiyasida “ko'p mezonli yondashuv”, “obyektiv baholash” va “konstruktiv tanqid yo'li bilan baholash” tamoyillari muhim deb hisoblanadi¹.

Bundan kelib chiqadiki, talabalarning yozma kompetensiyasini badiiy hikoyalar vositasida baholash samarali usul bo'lishi mumkin. Chunki badiiy hikoya orqali talaba o'z fikrini mustaqil ifodalaydi, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini namoyon etadi, shuningdek yozma muloqotda estetik va uslubiy imkoniyatlardan foydalana oladi. Tadqiqotlar ijodkorlik, tahliliy fikrlash va mustaqil yozishni rivojlantirishda ijodiy yozuvning ahamiyatini tasdiqlaydi².

Shunday qilib, yuqoridagi jarayonlarni uzviy bir butun sifatida ko'rib chiqsak: chet tillarini o'rganish va muloqot qilish — zamonaviy kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifa hisoblanadi; bu vazifaning amalga oshirilishida yozma muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va uni baholash moslamalarini joriy etish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa PQ-3775 qarori doirasida belgilangan maqsadlar bilan ham uzviy bog'liq.

Badiiy hikoyalar vositasida baholash quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

Ushbu usulda baholashda dastlabki qadam **badiiy hikoyalar tanlashdan** iborat bo'lib, hikoyalar talabalarning yoshiga, til bilish darajasiga va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak. Masalan, bir akademik soat davomida

¹ Abraham, U. Bewertung produktiv-kreativer schriftlicher Texte. Evaluation of productive-creative written texts. Deutschunterricht in Theorie und Praxis, 2010. 11(3), 89-115.

² Isabel, P, Yolanda, E, Antonio M. Assessing the Linguistic Creativity Domain of Last-Year Compulsory Secondary School Students. MDPI journal. 2024, 14(2), 153

baholash uchun hajmi uch yoki to‘rt betdan oshmagan hikoyalar (masalan, O‘Genri yoki E. Heminguey hikoyalari) mos keladi.

Baholashda turli janrlardan (fantastika, detektiv, drama yoki folklor) foydalanish talabalarni turlicha yozish uslublari bilan tanishtiradi va bu ularning leksikasini ham boyitishga yordam beradi. Hikoyalarda ijtimoiy muammolar yoki shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi mavzular bo‘lishi lozim. Chunki bu talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi ya‘ni bu ularni har bir masalani chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Talabalarning bilim darajasini quyidagi **baholash usullari** asosida aniqlash mumkin:

Tahliliy yozish: Talabalardan hikoyaning asosiy g‘oyasini, qahramonlar xarakterini yoki muallifning uslubini tahlil qiluvchi insho yozishni so‘rash mumkin. Bu ularning tanqidiy fikrlash (critical thinking) va yozish qobiliyati (writing comprehension)ni baholaydi.

- o Masalan: “Hikoyadagi bosh qahramonning qarori to‘g‘ri edi deb o‘ylaysizmi? Sababini yozing. (What do you think, did the protagonist made a correct decision? And why do you think so?)”

Ijodiy yozish: Talabalarga hikoyaning davomini yozish, yangi qahramon qo‘shish yoki hikoyani boshqa nuqtai nazardan qayta yozish topshirig‘i beriladi. Bu ularning tasavvur va ijodkorligini sinaydi.

- o Masalan: “Hikoyaning oxirini o‘zgartiring va yangi yakun yozing. (Write changing the end of the story)”

Xulosa yozish: Talabalardan hikoyani qisqacha umumlashtirish so‘raladi, bu ularning asosiy g‘oyalarni aniqlash va qisqa, aniq yozish ko‘nikmalarini baholaydi.

Badiiy hikoyalar asosida yozish ko‘nikmasi baholanganda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘ladi. Ya‘ni, eng avvalo, yozilgan ishning **mazmuni** baholanadi. Bunda talabaning hikoya mazmunini qanchalik darajada tushungani, asosiy g‘oyani anglab yetganligi yoki yetmaganligiga ko‘ra baholanadi.

Keyingi o‘rinda inshoning **tuzilishi**, unda kirish, asosiy qism va xulosalar mavjud ekanligi, gaplarning bir biri bilan mantiqiy ketma-ketlikda bog‘langanligi kabi xususiyatlariga ko‘ra baholanadi.

Uchinchidan, talabaning ishni yozishda foydalangan **lug‘at boyligi (lexical resource)** va ulardan uslubiy jihatdan to‘g‘ri foydalanganligi hamda ishning grammatik xatolarsiz yozilganligi baholanadi.

To‘rtinchidan, talabaning **ijodiy fikrlashi (Creative thinking)** baholanadi. Bunda uning tasavvur doirasi kengligi, hikoya mazmunini ochib berishdagi noodatiy yondashuvlari muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, talabaning **tahlil qilish qobiliyati (Analytical skills)** uning hikoya mavzusi, undagi obrazlar va muallifning uslubini tahlil qilish darajasiga ko‘ra baholanadi.

Shuni ham e‘tiborga olish kerakki, baholash uchun badiiy hikoya tanlanganda talabalarning individual darajasini hisobga olgan holda murakkab hikoyalar tanlamasligimiz lozim. Chunki u barcha talabalar uchun mos bo‘lmashligi mumkin. Bundan tashqari, hikoya tanlashda o‘qituvchi tomonidan hikoyaning madaniy va ijtimoiy jihatlariga ham ahamiyat berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytganda, yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda badiiy hikoyalardan foydalansak quyidagi maqsadlarga erishishimiz mumkin: badiiy hikoyalar talabalarni qiziqtiradi va yozish jarayonini yoqimli qiladi, ongda hikoyalarni tahlil qilish orqali ular muammolarga turlicha nuqtayi nazardan qarash va hal qilishni o‘rganishadi, turli janrdagi va uslubdagi hikoyalar talabalarning leksik boyligini oshirishga xizmat qiladi, hikoyadagi qahramonlarning his-tuyg‘ularini, kechinmalarini tushunish orqali talabalar o‘zlarining ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abraham, U. Bewertung produktiv-kreativer schriftlicher Texte. “Evaluation of productive-creative written texts”. Deutschunterricht in Theorie und Praxis, Band, 11(3), 2010. 89-115.
2. Isabel. P, Yolanda. E, Antonio M. “Assessing the Linguistic Creativity Domain of Last-Year Compulsory Secondary School Students”. MDPI journal. 2024, 14(2), 153
3. Makarova, Y., & Tarabakina, A. “Assessment of Students’ Creative Texts in a Foreign Language: Methodological Issues”. EpSBS. 2021 europeanproceedings.com



4. Pokhrel, V. (2023). *Developing Creative Writing Skills in EFL Students: An Action Research*. The Universal Academic Research Journal.
5. Rachmawati, D. L., & Hastari, S. (2022). *Formative Assessment as an Innovative Strategy to Develop ESP Students' Writing Skills*. Voices of English Language Education Society. e-journal.hamzanwadi.ac.id
6. <https://lex.uz/>